

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60310300—Psixologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va pedagogik-psixologik respu-
blika tashxis markazi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024- yil «25» 06 dagi 218 - sonli buyrug'i bilan

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standard. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standard. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mu-taxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga mu- vofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo’llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo’llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
3.	Amaliyotga qo‘yiladigan talablar	10
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	10
	Bibliografiya.....	12
	Kelishuv varag‘i.....	13

1. Umumiy tavsifi

60310300-Psixologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul (oliy harbiy ta’lim muassasalari bundan mustasno) tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **60310300-Psixologiya** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abutrientlar, ularning otonalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

60310300-Psixologiya—Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar ta’lim sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’limining davlat va nodavlat muassasalarida; ta’limi muassasalarida ta’lim yo‘nalishiga oid fanlarni o‘qitish, ommaviy axborot vositalari, davlat va mahalliy boshqaruvi organlari, har xil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlarida; xususiy psixologik xizmat ko‘rsatish markazlarida psixologik yordam ko‘rsatish; O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazida psixodiagnostik tadbirlar uyushtirish; o‘zini o‘zi boshqarish organlari, «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutida; reabilitatsiya markazlarida, sport jamoalarida psixologik xizmat ko‘rsatish; Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy bo‘limlarda, huquqni muhofaza qilish idoralarida psixologik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyalanuvchilari:

korxona, tashkilot va muassasalarda psixologik yordam ko'rsatish; ta'lif muhitida psixologik tadbirlarni tashkil etish va uni amalga oshirish, umumiy o'rta ta'lif maktablari va o'rta maxsus, professional ta'lif muassasalari o'qituvchilari, o'quvchilari hamda xodimlari, reabilitatsiya va psixologik xizmat markazlari xodimlari;

sport jamoasi treneri va sportchilari; psixologik xizmat ko'rsatish mijozlari; shaxsiy muammolari bilan murojaat qiladigan patsientlar;

eksperimental psixologiya laboratoriyasi jihozlarini tashkillashtirish va qo'llash;

maishiy xizmat ko'rsatishdagi psixologik muammolarni hal etish; mahallalar va fuqarolar;

aholiga psixologik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini tashkil etish; harbiy va huquqni muhofaza qilish idoralarda psixologik yordam ko'rsatish;

kadrlarni tanlash va ular faoliyatini psixologik tashkil etish; psixodiagnostik, psixologik maslahat, psixokorreksion, psixoprofilaktik, psixologik ma'rifat tadbirlari va psixologiya ixtisosligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

60310300 - Psixologiya bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lif yo'nalishi muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatning turlari.

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ma'naviy-ma'riifiy;*
- *loyihaviy;*
- *turli xizmatlar ko'rsatish.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60310300-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lif yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda psixologik mavzularga oid tadqiqotlarda ishirok etishi;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

psixologiyaga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referat va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;

ilmiy-amaliy jurnallarga maqolalar tayyorlash;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash; soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirish;

psixologiya fani sohasiga doir ilmiy-tadqiqotlar bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalarni uyg'unlashtirish;

ma'lumotlarni jamlaydi, qayta tayyorlaydi, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyatga qo'llash **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

psixologik tadqiqotlari yechimlarini amaliyatga tatbiq etish;

ishlab chiqarish jarayonlarida psixologik faoliyatini boshqarish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

tashkilot, korxona, muassasa va mahalliy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlarining taklif va talablari asosida psixologik ma'rifat tadbirlarini tashkil etish;

mahalliy matbuot, ilmiy-ommabop teleradio eshittirish va ko'rsatuvlarda psixologik materiallar bilan ishtirok etish **qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.**

Loyihaviy faoliyatda:

joriy va davriy ko’rsatkichlar nisbati tahlili va zarur resurslarni hisobga olgan holda uni optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, loyihaviy faoliyatning monitoringi uchun ma’lumotlar bazasi yaratish;

tadqiqot, analitik va konsalting loyiha faoliyatini amalga oshirish uchun metodik instrumentariylar, me’yoriy hujjatlar, informatsion ma’lumotlar ishlab chiqishda qatnashish;

psixologik ko’rsatkichlar, jarayon va munosabatlarni diagnostika qilish, baholash, takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar tashkil etish va o’tkazishda ishtirot etish;

fan sohasidagi xorijiy loyihalarda ishtirot etish;

psixologiya yo’nalishlari bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, tadqiqot natijalarini tarqatishda ishtirot etish ***qobiliyatlariga ega bo’lishi lozim.***

Turli xizmatlar ko’rsatish faoliyatida:

pullik psixologik xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

fuqarolar ichidan individual psixologik yordamga muhtoj kishilarga pullik xizmat ko’rsatish qobiliyatiga;

shaxsnинг individual faoliyati, oilaviy va shaxslararo munosabatlari bilan bog’liq muammolarni psixologik hal etish ko’nikma va malakalariga;

balalarning shaxsiy kamoloti bilan bog’liq muammolar yuzasidan psixologik maslahatlar berish qobiliyatiga;

psixologik va sotsial-psixologik trening kurslari ishlab chiqish va psixologik yordamga muhtoj insonlar muammolarini yechish qobiliyatiga;

bola, katta yoshdagilar va aqliy taraqqiyot holatini aniqlashga zarurat sezgan shaxslarga psixodiagnostik va psixologik maslahat yordam ko’rsatish;

fuqarolarning shaxsiy muammolarini psixologik jihatdan yechishga ko’maklashish;

muassasa, tashkilotlarda va korxonalarda psixologik xizmatni tashkil etish va uni amalga oshirish;

psixologik xizmat ko’rsatish bo‘yicha loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

yo’nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;

xitisoslikka mos sohalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko’rsatish qobiliyatiga ega bo’lish;

muassasa va tashkilotlarda psixologik tadqiqotlarini o’tkazish;

muassasa va faoliyatini psixologik tahlil qilish;

turli psixologik xizmat sohalarida xorijiy tajribalarini joriy qilish;

ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish korxonalarini rivojlantirishning psixologik strategiyalarini ishlab chiqish ***qobiliyatlariga ega bo’lishi kerak.***

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

Loyihaviy faoliyatda:

joriy va davriy ko'rsatkichlar nisbati tahlili va zarur resurslarni hisobga olgan holda uni optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, loyihaviy faoliyatning monitoringi uchun ma'lumotlar bazasi yaratish;

tadqiqot, analitik va konsalting loyiha faoliyatini amalga oshirish uchun metodik instrumentariylar, me'yoriy hujjatlar, informatsion ma'lumotlar ishlab chiqishda qatnashish;

psixologik ko'rsatkichlar, jarayon va munosabatlarni diagnostika qilish, baholash, takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

fan sohasidagi xorijiy loyihalarda ishtirok etish;

psixologiya yo'naliishlari bo'yicha loyihalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, tadqiqot natijalarini tarqatishda ishtirok etish **qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.**

Turli xizmatlar ko'rsatish faoliyatida:

pullik psixologik xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

fuqarolar ichidan individual psixologik yordamga muhtoj kishilarga pullik xizmat ko'rsatish qobiliyatiga;

shaxsning individual faoliyati, oilaviy va shaxslararo munosabatlari bilan bog'liq muammolarni psixologik hal etish ko'nikma va malakalariga;

bolalarning shaxsiy kamoloti bilan bog'liq muammolar yuzasidan psixologik maslahatlar berish qobiliyatiga;

psixologik va sotsial-psixologik trening kurslari ishlab chiqish va psixologik yordamga muhtoj insonlar muammolarini yechish qobiliyatiga;

bola, katta yoshdagilar va aqliy taraqqiyot holatini aniqlashga zarurat sezgan shaxslarga psixodiagnostik va psixologik maslahat yordam ko'rsatish;

fuqarolarning shaxsiy muammolarini psixologik jihatdan yechishga ko'maklashish;

muassasa, tashkilotlarda va korxonalarda psixologik xizmatni tashkil etish va uni amalga oshirish;

psixologik xizmat ko'rsatish bo'yicha loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

yo'nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;

ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lish;

muassasa va tashkilotlarda psixologik tadqiqotlarini o'tkazish;

muassasa va faoliyatini psixologik tahlil qilish;

turli psixologik xizmat sohalarida xorijiy tajribalarini joriy qilish;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirishning psixologik strategiyalarini ishlab chiqish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tessavvurga ega bo'lish.

ta'lim yo'nalihi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallah uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarini shakllantirishi; ta'lim yo'nalihsiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

ta'lim yo'nalihi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishslash;

tegishli bakalavriat yo'nalihi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish;

kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanish;

psixikanining kognitiv, konativ va emotсional-affektiv sohalarining psixologik xususiyatlari, qonuniyatlarini, nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish;

umumiyl psixologiya faning predmeti, tadqiqot usullari, psixikaning xossalari, xususiyatlari, hodisalari, tamoyillari, psixologiya fanning tarixiy rivojlanish tendensiyalari va unga aloqador nazariy yondashuvlarni tahlil qilish

psixologik eksperimentni tashkil etish va o'tkazish, metodikalarini tanlash va qo'llash, shaxsning motivatsiya sohasi, emotсional-irodaviy sohasi, kognitiv sohasiga ko'ra eksperimentlarni tashkil eta olish;

sotsial psixologiya fani doirasidagi guruh, jamoa, guruhdagi va guruhlararo munosabat xususiyatlari, katta va kichik guruhlarni tadqiq etish, shaxsning o'rganishning sotsial psixologik muammolarini, ijtimoiylashuv, sotsial ustanovkalar, shaxsning guruhdagi o'rni, sotsial psixologiyaning amaliy tadqiqot xususiyatlarini tadqiq qilish;

psixologik tadqiqot metodlari va metodikalarini saralash, ularni tatbiq qilish, natijalarni qayta ishslash metodlaridan foydalanish va natijalarni talqin etish;

psixologik tekshiruv va tadqiqot bosqichlarini rejalashtirish, psixodiagnostika darajalari bo'yicha tekshiruv va tadqiqotni tashkil etish, psixodiagnostika natijalari bo'yicha xulosalar tayyorlash;

psixodiagnostika metodikalari ishlab chiqish, moslashtirish va tatbiq qilish;

psixodiagnostika metodikalarini tatbiq qilish, natijalarni qayta ishslashda

miqdor hamda sifat tahlil usullarini qo'llash;

psixologik tekshiruv va tadqiqot natijalariga ko'ra diagnoz qo'yish va tavsiyalar ishlab chiqish;

korxona, tashkilot va muassasalardagi jamoalarning psixologik xususiyatlarini baholash va ular sotsial-psixologik tavsifnomasini ishlab chiqish;

sotsial-psixologik treningni tashkil qilish va uning o'tkazish texnologiyasini tatbiq qilish, psixologik trening dasturlarining ishlab chiqish va joriy etish;

mijozlarning xususiyatiga ko'ra psixologik konsultatsiya va psixokorreksiya tadbirlarini tashkil qilishni bilish, psixologik konsultatsiya va korreksiyani tashkil qilish va o'tkazish texnologiyasini qo'llay olish;

tarmoq va sohalarga ko'ra psixologik xizmat yo'nalishlarini belgilash va xizmat turini tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarda ekstremal psixologik yordam ko'rsatishni tashkil qilish;

psixologiya muammolari doirasida loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish;

psixologik ma'rifat tadbirlarini tashkil qilish;

psixologik tavsiyalar va ko'rsatmalar ishlab chiqish;

psixologik tadqiqot metodlari va metodikalari, psixologik trening va konsultatsiyani tashkil etish texnologiyalari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

ijtimoiy-iqtisodiy soha va madaniy-ma'rifiy yo'nalishlarda faoliyat olib boruvchi tashkilotlarga psixologik xizmat ko'rsatish turini tavsiya etish bo'yicha ***bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahsga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malaka amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

3. Amaliyotga qo'yiladigan talablar

Malaka amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish,

tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiya va malakalarini shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malaka kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklanamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4920	164	
1.01	OMF1104	Oliy matematika	120	4	1
1.02	O'YT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03	FAL1104	Falsafa	120	4	2
1.04	O'RT1104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.05	XT1204	Xorijiy til	120	4	2
1.06	DIN2204	Dinshunoslik	120	4	4
1.07	RAT1106	Raqamli va axborot texnologiyalari	180	6	1
1.08	JMS1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.09	MTK1106	Mutaxassislikka kirish	180	6	1
1.10	UPS1123424	Umumiy psixologiya	720	24	1,2,3,4
1.11	EKP123416	Eksperimental psixologiya	480	16	2,3,4
1.12	RPD12310	Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya	300	10	2,3
1.13	PMQ1306	Psixologik ma'lumotlarni qayta ishslash metodlari va texnologiyalari	180	6	3
1.14	UPD13410	Umumiy psixodiagnostika	300	10	3,4
1.15	SPS1412	Sotsial psixologiya	360	12	4,5
1.16	PKP1506	Psixologik konsultatsiya va psixokorreksiya	180	6	5
1.17	UMP1506	Umumiy pedagogika	180	6	5
1.18	PSA1604	Psixologik trening asoslari	120	4	6
1.19	PPPM1606	Pedagogik psixologiya va psixologiyaning o'qitish metodikasi	180	6	6
1.20	KLPS1606	Klinik psixologiya	180	6	6
1.21	YRPS1704	Yuridik psixologiya	120	4	7
1.22	OIPS1704	Oila psixologiyasi	120	4	7
1.23	MMPS1704	Mehnat va muhandislik psixologiyasi	120	4	7
1.24	PST1706	Psixologiya tarixi	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1200	40	4,5,6,7
		<i>Klassifikatsiya</i>			<i>Psixolog</i>
		Jami	6120	204	
		Malaka amaliyot	840	28	2, 4, 6, 8
		BMI (Yakuniy davlat attestatsiyasi)	240	8	8
		Jami	1080	36	
		HAMMASI	7200	240	

* OTM o'quv jarayonlarini tashkil etish hususiyatidan kelib chiqib, semestrlar uchun belgilangan umumiyl kredit miqdorini muvofiqlashtirgan holda fanlar o'tiladigan semestrlarni o'zgartirishi mumkin.

** Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malaka amaliyot ta'lim jarayonining tegishli qismida uzlucksiz 15 hafta hajmida belgilanadi. 15 haftalik malaka amaliyoti ma'lum bir semestrda to'liq hajmda qo'yilgan taqdirda fanlar katalogida ushbu semestrda o'quv fanlar mashg'ulotlari belgilanmasligi lozim (Masalan, malaka amaliyoti to'liq 6-semestrda qo'yildi, bu holda fanlar katalogining 6-ustunida bironqa o'quv fani qatorida 6-semestr qayd etilmaydi. 6-semestr faqat "Malaka amaliyoti" qatorida ko'rsatiladi).

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

psixika, evolyutsiya, eksperiment, kuzatish, test, ong, shaxs, psixoanaliz, geshtalt psixologiya, kognitiv psixologiya, ichki regulyatsiya, motiv, motivatsiya, qadriyatlar, ustanovka, qiziqishlar, emotsiya, hissiyot, iroda, irodaviy aktlar, sezgi, sezgi chegarasi, sezgi qonuniyatları, sezgi xususiyatlari, idrok, idrok xususiyatlari, xotira, tafakkur, tafakkur jarayonlari, psixodiagnostika, metod va metodika, test, intellekt testi, aqliy taraqqiyot, shaxslararo munosabat, trening, sotsial-psixologik trening, diniy e'tiqodlar, shaxs xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlar, psixosomatika; somatopsixik, psixosomatik; praktikum, seminar, laboratoriya, psixologik xizmat, ta'lim muassasalarida psixologik xizmat; psixologik tadqiqot ma'lumotlarini qayta ishlar metodlari va texnologiyalari, huquq tartibot idoralarida va harbiy sohada psixologik xizmat, tibbiy muassasalarda psixologik xizmat, boshqaruv va ijtimoiy sohalarda psixologik xizmat.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilar

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  M.Madjidov

2024 yil « 19 » 06

M.O.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M.Boltaboyev

2024 yil « ____ » _____

M.O.

O'zbekiston xalqaro islom
akademiyasi

Rektor  U.G'afurov

2024 yil « ____ » _____

M.O.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti

Rektor  Sh.Sirojiddinov

2024 yil « ____ » _____

M.O.

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va pedagogik-psixologik
respublika tashxis markazi direktori

Direktor  L.Gaynutdinova

2024 yil « ____ » _____

M.O.

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
6030300 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining
ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste’molchilari o‘rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va pedagogik-psixologik respublika tashxis markazi direktori L.R.Gaynutdinova, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori U.T.G‘afurov, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidovlar birgalikda O‘zMUDA ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

6030300 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishining Malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘ylgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va
pedagogik-psixologik respublika tashxis markazi
direktori**

L.R.Gaynutdinova

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori

U.T.G‘afurov

O‘zbekiston Milliy universiteti rektori

I.U.Madjidov

O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan 6030300 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishi mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga

TA Q R I Z

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minalash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

6030300 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishi malaka talablari va o‘quv rejasiga O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavr ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasidagi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minalovchi mazmunda hamda kelgusida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

6030300 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasidagi xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, magistrlarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb

muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budgetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 6030300 – Psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
rektori



U. G'afurov

O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan 6030300 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishi mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga

TA Q R I Z

O‘zbekiston Milliy universitetida 6030300 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishi malaka talablari ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

6030300 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasasi xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak malakali kadrlar shakllanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavr ta’lim shakli fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish, soha bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, soha bo‘yicha zaruriy bilim va malakalarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘ladigan ma’lumotlarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablарини ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta’minlangan bo‘lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste’molchilar bo‘lgan korxona va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 6030300 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasasi oliy ta’lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o‘z ichiga

olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori**

Sh.Sirojiddinov

